XALQ DEPUTATLARI SAMARQAND VILOYATI KENGASHINING
Q A R O R I

2023 - yil 30 - yanvar VI-80-2-7-0-K/23 Samarqand viloyat hokimligi

Samarqand viloyatida 2023-yilda yuridik shaxslar mol-mulk solig‘ini hisoblashda ko‘chmas mulkning mutlaq qiymatiga qo‘llaniladigan kamaytiruvchi koeffitsientlarni tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 412-moddasi, viloyat Davlat soliq boshqarmasi (2022-yil 20-dekabrdagi 19/10-120148-son) va viloyat Moliya bosh boshqarmasining (2022-yil 22-dekabrdagi 01/02-38-951-son) xulosalariga asoslanib, xalq deputatlari Samarqand viloyati Kengashining oltinchi chaqiriq, saksoninchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. Samarqand viloyati tumanlarining iqtisodiy rivojlanishiga qarab 2023-yilda yuridik shaxslar mol-mulk solig‘ini hisoblashda ko‘chmas mulkning mutlaq qiymatiga qo‘llaniladigan kamaytiruvchi koeffitsientlar ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari kotibiyati (K.Xushbakov), viloyat Moliya bosh boshqarmasi (B.Mirzayev), viloyat Davlat soliq boshqarmasi (A.Inagamov) mazkur qarorga asosan 2023-yilda yuridik shaxslarning mulk qiymatiga qo‘llanilayotgan kamaytiruvchi koeffitsientlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni soliq to‘lovchilarga yetkazilishini ta’minlansin.

3. Viloyat hokimligi axborot xizmati rahbari – matbuot kotibi (M.Mirzayev), viloyat hokimligi “Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish markazi” (A.Anvarov) ushbu qarorni “Zarafshon” va “Самаркандский вестник” gazetalarida rasman e’lon qilinishi va viloyat hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilishini ta’minlasinlar.

4. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari viloyat Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (F.Nasrullayev) va viloyat hokimining o‘rinbosari (F.Abilov) zimmasiga yuklansin.

5. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi **E.Turdimov**

Xalq deputatlari Samarqand
viloyat Kengashining
2023 yil 30 yanvardagi
VI-80-2-7-0-K/23-son qaroriga
1-ilova

Samarqand viloyati tumanlarining iqtisodiy rivojlanishiga qarab 2023-yilda yuridik shaxslar mol-mulk solig‘ini hisoblashda ko‘chmas mulkning mutlaq qiymatiga qo‘llaniladigan kamaytiruvchi koeffitsientlar

T/R	**Hududlar nomi**	**Kamaytiruvchi koeffitsient** *(yirik soliq to‘lovchilardan tashqari)*	**Minimal miqdor 2023-yil uchun (ming so‘m)**
1.	Oqdaryo tumani	0,65	650,0
2.	Bulung‘ur tumani	0,65	650,0
3.	Jomboy tumani	0,70	700,0
4.	Ishtixon tumani	0,65	650,0
5.	Kattaqo‘rg‘on tumani	0,60	600,0
6.	Qo‘shrabot tumani	0,50	500,0
7.	Narpay tumani	0,60	600,0
8.	Payariq tumani	0,60	600,0
9.	Pastdarg‘om tumani	0,70	700,0
10.	Paxtachi tumani	0,50	500,0
11.	Samarqand tumani	0,75	750,0
12.	Nurobod tumani	0,50	500,0
13.	Toyloq tumani	0,70	700,0
14.	Urgut tumani	0,60	600,0